

## TOG'AY MUROD ASARLARIDA DIALEKTIZMLARNING IFODALANISHI

*TerDU talabasi Ro'ziyeva Durdonanuriddinovna*

*ro'ziyevadurdona2004@gmail.com*

*Ilmiy rahbar:D.A. Ergasheva*

**Annotatsiya.** O'tgan davr oralig'ida o'zbek lahjalari ko'plab o'zgarishlarga yuz tutdi va hozirgi kunda adabiy tilda qo'llanilmaydigan so'zlar shevalarimizda faol tarzda uchrashini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib Tog'ay Murod asarlaridagi dialektizmlarni olishimiz va tahlil qilishimiz to'g'ridir. Yozuvchining asarları shevaga boyligi, sharqona tili bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turadi va faqatgina dialektizmlar emas balkim, vulgarizmlar, arxaizmlardan ham unumli foydalangan desak adashmagan bo'lamiz.

**Kalit so'zlar.** Lahjalar, o'zbek shevalari, dialektizmlar, sheva birliklaring morfotahlili, leksik baza.

O'zbek tili turli sheva, dialektdan tashkil topgan. Adabiy tildagi so'zlarni shevalarda boshqacha variantlarda uchratishimiz mumkin. Hozirgi kunga kelib ham dialektizm ya'nikim shevashunoslikni yuqori darajasiga yetolganimizcha yo'q, lekin lahja, sheva va dialect tushunchalari bo'yicha ozmi k'opmi ma'lumotlarga egamiz. Dialect tushunchasiga olimlarimiz tomonidan turlicha qarashlar mavjud. Masalan T.Eshnazarov, S.Ashirboyev, V.V.Reshetov kabi professorlar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Shundan kelib chiqib Samixon Ashirboyevning lahja terminiga berib o'tgan fikrlarini keltirishimiz mumkin ya`ni lahja arabcha so'z bo'lib, sheva, ravish, yo'sin ma'nolarini bildiradi. Lahjaga qaraganda dialect katta joyni qamrab oladi. Shu sababli dialect umumiy ma'no anglatadi.

**Ha shuyakan !** Ashurboy , qo'ylarni ushlab, **og'ilxonaga** qamang ! ( Tog'ay Murod „Yulduzlar mangu yonadi“ ) Ushbu gapda bu fonetik o'zgarish asosida keltirilgan „**shuyakan**“ (**shu ekan**) so'zi morfemik struktura asosiga ko'ra dealektal jihatdan birlashgan. Bu so'z bitta tovush orttirilishi va bitta tovush almashishi bilan hosil qilingan. **"og'ilxona"** so'zi esa mollar, uy hayvonlari qamaladigan joy ma'nosini bildiradi. Ana shunda bobomiz Oqpodsha ketida turmish Xoliqul mingboshi **tilmochini** tanib qoladi. ( Tog'ay Murod „ Otamdan qolgan dalalar “ ) Parchada keltirilgan **tilmoch** so'zi arxaik so'z hisoblanadi. „**Tilmoch**“ so'zi ushbu gapda „tajimon“ ma'nosini bildiradi. Yerga suqig'lik odam bo'yi temir uchida **lo'pchik** lov-lov yonib turdi. ( Tog'ay Murod „ Yulduzlar mangu yonadi “ ) "O'zbek



tilining izohli lug`ati"da lo`pchik 1. Uchiga paxta o`ralgan cho`p ( siqilgan o`sma, yod kabi suyuq narsaga surtish uchun ishlataladi). 2. Paxta yoki lattani yumaloqlab, cho`pga suqib yoki sigma bog`lab, kerosin, qoramoy shimdirib, mash`ala sifatida ishlataladigan narsa. Ushbu variantda esa „**lo`pchik**“ so`zi "mash`ala" ma`nosida qo`llangan. – *Bo`ri, o`lay agar, hundisan, hundi !- dedi.* – *Ichimdagini top, deb bezrayib tura berasan!* ( Tog`ay Murod „Yulduzlar mangu yonadi “) Ushbu gapda kelgan „**hundi**“ so`zi „O`TIL“da mavjud emas va biz buni „yovvoyi“, „odamovi“ so`zleri bilan almashtirib, izohlab keltirishimiz mumkin. Bunda esa Tog`ay Murodning dilektizmlarni mahorat bilan qo`llashini ko`rshimiz mumkin. Oshna, *to`ylarimda, betob bo`lib qolganlarimda seni ko`p yodladim. Ayniqsa, burnog`i yili ko`p qo`msadim.* (Tog`ay Murod "Yulduzlar mangu yonadi") Ushbu gapdagagi **burnog`i** so`zi „ oldin „ , „o`tgan “ ma`nosi o`rnida qo`llanilgan bo`lib, bu gapni „ Ayniqsa, bundan oldingi yili ko`p qo`msadim “ shaklida izohlashimiz mumkin. *U kishi ishdalar. Kirib o`tirib turing, hamzamat kelib qoladilar, - dedi zaifa.* (Tog`ay Murod „Ot kishnagan oqshom“) Bu gapdagagi **hamzamat** so`z,, ha demay“ ya`ni tez fursatda ma`nosi o`rnida qo`llanilgan so`z bo`lib, vaqtini bildirish maqsadida qo`llanilgan. – **Ertaminan** g`ayrat qilaman , - deya so`z beraman. (Tog`ay „Murod Otamdan qolgan dalalar“ ) Ushbu gapda **ertaminan** so`zi mustaqil so`z bilan yordamchi so`z turkumi qo`shilishi natijasida shevaga o`zlashtirilib so`z hosil qilingan ya`ni haqiqiy variant „erta bilan“ shaklida ekanligini ko`rshimiz mumkin. – *Yo`q bo`lsa nima qilayin ? Mol zarilmi , paxta zarilmi ? – Paxta zaril! .* ( Tog`ay Murod „ Otamdan qolgan dalalar “ ) Bunda fonetik o`zgarish asosida dialektizm hosil qilingan. Gapdagagi **zaril** so`zini *Abraymi? Nasim polvonning uli bo`ladi.* Yaqinda armiyadan keldi. (Tog`ay Murod „Yulduzlar mangu yonadi “) „O`g`li“ so`zi **uli** tarzida ishlataliyotganini ko`rshimiz va sheva orqali hududni ifodalab beryotganini bilishimiz mumkin. *Birinchi terim ertamatan boshlanadi. Ertamatan olib kelardilaringiz-da?* ( Tog`ay Murod „ Otamdan qolgan dalalar “) Bu gapda **ertamatan** so`zining ikkinchi qismi fonetik o`zgarishlar asosida qo`llangan bo`lib **erta bilan** shaklidagi so`z shevalashtirilib ketilganini ko`rshimiz mumkin. **O`limichi etib urdilar! Tepib-tepib muzxonaga olib kirib tashladilar.** ( Tog`ay Murod „ Otamdan qolgan dalalar “ ). Ushbu gapdagagi **o`limichi** so`zini O`TIL orqali izlashtirib ko`rdik, lekin bu so`zning o`zi emas, balkim, o`xshash varianti ya`ni **o`limichi** so`zini topdik. Bu so`zni ma`nosi ham „o`lar holatga keltirish, chala o`lik qilib tashlamoq “ ma`nolariga ega ekan. Bu so`z ma`no jihatidan leksik dialektizmga, tovush almashishi hisobiga esa fonetik dialektizmga misol bo`la oladi. *Men Zulayho bilan irgama-irga egat tushaman.*( Tog`ay Murod „Otamdan qolgan dalalar“). Bu so`zning ma`nosi adabiy tilda „yonma yon“ so`ziga to`g`ri keladi. *Sizni Toshkanga*



uch kunlik ko`rikka jo`nataman, Dehqonqul aka, -dedi raisimiz. –Bir ko`ngilni **cherini** yoyib kelasiz. (Tog`ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”) Ushbu parchadagi **cher** so`zi O`TILda quyidagicha ma`nolarga ega: *Cher folklor. Alam, qayg`u; dog`.* Ko`p chopilsa otingizdan ter kelar, Yomon gapga yuraklardan *cher* kelar. „Oysuluv“. *Yuragida cher edi, Gurkuragan ere di. „Hasanxon“.* **Cher** so`zini sof leksik dialektizm hisoblanadi. *Avtomatchilar Avtomat qo`ndog`i bilan sandiq usti bo`g`jomalarni ag`darib-ag`darib tashladi.* (Tog`ay Murod „Otamdan qolgan dalalar“) Ushbu parchadagi ajartib ko`rsatilgan so`zni O`TILda quyidagicha uchratishimiz mumkin: kiyim-kechak,kiyimlik gazlamalar, eski-tuskilar tugib qo`yiladigan katta mato;choyshab.2. Shunday matoga tugilgan bo`xcha, tugun. Shunday ekan kiyim-kechaklarni solib qo`yadigan mato **bo`g`joma** deyiladi. *Uy-ich itirqin-itirqin bo`ldi.*(Tog`ay Murod „Otamdan qolgan dalalar“) Ushbu gapdagagi ajratib ko`rsatilgan **itirqin** so`zi O`TILda keltirilmagan ammo bu so`zni asar o`qish davomida „betartib” , „to`zg`igan“ ma`noda kelganini anglab olish qiyin emas. – *O`ynab qo`yay, „Lenin“ dan, o`ynab qo`yay! Yo`q „Lenin“ ni qayerdan olaman?* *Ivan Ivanovich ho`ppaklab-ho`ppaklab quloq-chakkam soldi.* (Tog`ay Murod „Otamdan qolgan dalalar“) Ushbu so`zga O`TILda shunday izoh berilgan: Ho`ppak. Ikki qo`l shapalog`ini biriktirib, orqasi bilan urish. 2. Paxtasi yetilib, yaxshi ochilgan ko`sak. Ho`ppak paxta. Bu yerda **ho`ppak** so`zi 1-izohga mos keladi va biz bu so`zni sof dialektizmga misol bo`lishini ko`rshimiz mumkin. – *Sizzdan oldin ashiyoqqa bir balo o`tdi,-deydi bobomiz.* (Tog`ay Murod „Otamdan qolgan dalalar“) Ushbu gapdagagi ajratib ko`rsatilgan so`z adabiy tilda „ana shu yoqqa“ ma`nosini anglatadi va bu yerda asar qahramoni tomonidan shevalashtirilib talaffuz qilingan.

Xulosa o`rnida shuni aytshimiz mumkinki, o`zbek shevalaeiga xos bo`lgan soz`lar hali to`la o`rganilib bo`lingan soha emas. O`zbek xalqining shakllanishida milliy til boyligimiz doimo asos vazifasini o`taydi, chunki xalq shevalari asosida hozirgi o`zbek adabiy tili shakllangan va shakllanishda davom etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

- 1.Tog`ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi . Toshkent.- Ziyo, 2020.
- 2.Tog`ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. Toshkent.: Sharq, 1994
- 3.O`zbek tilining izohli lug`ati: 5 jildni, 80 000 dan ortiq so`z A.Madvaliyev tahriri ostida. -Toshkent. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
- 4.Sayfullayeva R.R ; Mengliyev B.R ; Boqiyeva G.H; Qubanova M.M; Yunusova Z.Q Abuzalova M.Q. Hozirgi o`zbek adabiy tili. O`quv qo`llanma. – T. „Fan va texnologiya “, 2009.





5.B.Mengliyev. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Tafakkur bo`stoni . 2018.

